

Tasdiqlayman
3-maktab direktori
SH.M.Qodirova
2016 yil “15”dekabr

Zarafshon shahar 3-umumiy
o'rta ta'lim maktabining
matematika-informatika fani
o'qituvchisi Siddiqova Zubayda
Qo'ysinovnaning uyda yakka tartibda
ta'lim olayotgan 5-sinf o'quvchisi
Xamidova Shaxrizoda uchun bir
soatlik ochiq dars bayonnomasi.





Sinf:5

**Mavzu: O'qli kasrlarni
natural songa ko'paytirish**

**Fan:
matematika**

Sana:15.03.2016



Darsning maqsadi.

Ta'limiy: O'quvchiga o'nli kasrlarni natural songako'paytirish haqida ma'lumot berish.

Tarbiyaviy:
O'quvchini vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi:
O'quvchini o'nli kasrlarni natural songako'paytirish mavzusida olgan bilimlarini oshirish, bilim, ko'nikma va malaka berish.

Dars
uslubi

Dars usuli

Dars tipi

Yangi bilimlar va
tushunchalar
hosil qilish va
o'zlashtirish
darsi

Ko'rgazmali
-
amaliy

Suhbat,
bahs,
test sinovi,
yakka
tartibda
ishlash,
xotira
mashqi

Dars jihozi:

Tarqatma materiallar:
Kompyuter, slaydlar, reklama roligi,
kompyuterda testlar bloki.

Reja

1. Tashkiliy qism 2 daqiqa
2. O`tgan mavzuni so`rash
3 daqiqa
3. Yangi mavzuni bayoni
20 daqiqa
4. Mustahkamlash
15 daqiqa
5. Baholash
3 daqiqa
6. Uyga vazifa berish
2 daqiqa



I. TASHKILIY QISM

O'quvchi bilan salomlashish

Kun yangiliklarini so'rash

Uyga berilgan vazifani aniqlash, va baholash

Baholash mezoni



Bugungi darsimizda baholash me'zoni lola, binafsha va boychechaklar bilan o'quvchi baholanadi .Dars yakunida o'quvchi barpo etgan bog' hisob-kitob qilinadi va qaysi gul ko'proq bo'lsa shu gulaga mos baho qo'yiladi. Ingliz tilida

Excelent – a'lo

Good – yaxshi

Satisfied– qoniqarli

II. O'RGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH

12,754835 sonini yaxlitlash

12,75484

Son 100 000 dan
birgacha yaxlitlandi

12,7548

Son 10 000 dan
birgacha yaxlitlandi

12,755

Son 1 000 dan
birgacha yaxlitlandi



1. Sonlarni yaxlitlang:

1) birlar xonasigacha: 420,72; 28,95; 39,37; 99,62;
15,45;

2) o'ndan birlar xonasigacha: 1,081; 0,476; 9,872;
0,963; 4,039.

2. 1 km gacha aniqlikda yaxlitlang:

1) 342,43 km; 3) 712,67 km; 5) 999,91 km;
2) 93,72 km; 4) 85,48 km; 6) 999,29 km.

3. 1 sr gacha aniqlikda yaxlitlang:

1) 3 t 15 sr 75 kg; 3) 7 sr 98 kg; 5) 3675 kg;
2) 1 t 6 sr 36 kg; 4) 5 sr 25 kg; 6) 4830 kg.

4. Sonlar qaysi xonasigacha yaxlitlangan:

1) 3,754 - 3,8; 2) 5,2804 - 2,28; 3) 1,76391 -
1,764?

III. YANGI MAVZU BAYONI

O'NLI KASRLARNI NATURAL SONGA

KO'PAYTIRISH

Masala. Uchta yashikka olma joylandi. Har bir yashikdagi olma 12,7 kg dan bo'lsa, jami olmalar necha kilogramm bo'ladi?

Yechish:

$$1 - \text{usul. } 12,7 \cdot 3 = 12 \frac{7}{10} \cdot 3 = \frac{127}{10} \cdot 3 = \frac{381}{10} = 38 \frac{1}{10} = 38,1(\text{kg}).$$

Javob: 38,1 kg .

2 - usul. 12,7 o'nli kasrni 3 ga ko'paytirish uni o'zini o'ziga uch marta qo'shish demakdir, ya'ni:
 $12,7 \cdot 3 = 12,7 + 12,7 + 12,7 = 38,1(\text{kg}).$

O'nli kasrlarni natural son (yoki, baribir, natural sonni o'nli kasr)ga ko'paytirish natural sonlarni ko'paytirishga o'xshashligini sezgir o'quvchi uchun masala yechimidan ilg'agan qiyin emas bo'lsa kerak.

Haqiqatan ham:

1) $127 \cdot 3 = 381$ va $12,7 \cdot 3 = 38,1$;

2) $4 \cdot 8,26 = 33,04$ va $4 \cdot 8,26 = 33,04$.



O'NLI KASRLARNI NATURAL SONGA KO'PAYTIRISHGA DOIR MISOL

$$65,47 \cdot 37 = ?$$

$$65,47 \cdot 37 =$$

$$\begin{array}{r} \times \quad 65,47 \\ \quad 37 \\ \hline + \quad 458 \quad 29 \\ + 1964 \quad 1 \\ \hline 2422,39 \end{array}$$



Ko'paytmalar bir-biridan vergulning borligi bilan farqlanadi.

Biz qarayotgan holda ko'paytuvchida verguldan keyin nechta raqam bo'lsa, ko'paytmada ham verguldan keyin shuncha raqam bor.



1 - misol. Ko'paytmani hisoblang: $3,712 \cdot 13$.

		×	3	7	1	2			
					1	3			
	+		1	1	1	3	6		
			3	7	1	2			
			4	8	2	5	6		

verguldan keyin 3 ta raqam

verguldan keyin 3 ta raqam

2 - misol. Ko'paytmani hisoblang: $4,54 \cdot 15$.

		×	4	5	4			
					1	5		
	+		2	2	7	0		
			4	5	4			
			6	8	1	0	=	6 8,1

1) O'nli kasr 4,54 da verguldan so'ng 2 ta raqam (kasr xona) bor.

2) 6810 ko'paytmada o'ng tomondan chapga qarab ikkita raqam sanaymiz va 1 oldiga (8 bilan 1 orasiga) vergul qo'yamiz: 68,10.

Ammo, ~~68,10~~ = ~~68,1~~. Demak, $4,54 \cdot 15 = 68,1$.

Bu holda ham natijada verguldan keyin 2 ta raqam bor (68,10), biroq yuzlar xonasidagi 0 ni (u oxirgi xona bo'lgani uchun) yozish shart emas.

Yechish yo'li...

			3	2,	1			
	*			2	8			
				-----	-----			
	+		2	5	6	8		
			6	4	2			
			-----	-----	-----			
			8	9	8,	8		



IV. MUSTAHKAMLASH

(Og'zaki.) Natijani ayting:

- 1) $0,5 \cdot 4$; 2) $3,5 \cdot 2$;
3) $4 \cdot 0,15$; 4) $0,4 \cdot 11$;
5) $0,7 \cdot 8$.

(Yozma) Darslikdan

889-897-Misollarni yecish.

1. Natural sonlarni “Ustun” usulida ko'paytirish qoidalarini ayting.
2. O'nli kasrlar natural songa qanday ko'paytiriladi?
3. Natural son o'nli kasrga qanday ko'paytiriladi?

V. O'quvchini baholash.

VI. Vazifa.

O'NLI KASRLARNI NATURAL SONGA
KO'PAYTIRISHGA DOIR MISOL

$$65,47 \cdot 37 = ?$$

$$65,47 \cdot 37 =$$

$$\begin{array}{r} \times 65,47 \\ \hline 45829 \\ + 19641 \\ \hline 2422,39 \end{array}$$



to'xta



